

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

**TALABALARDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
MAZMUNI**

Vorisova B.O
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Kitob, uni mutolaa qilish istagi mustaqil hayotga qadam qo‘ygan, biroq, hali hayotiy maqsadlari etarlicha aniq bo‘lmagan va ayni vaqtida intellektual etuklikka intilayotgan talabalar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ammo afsuski, global axborotlashuv ta’sirida asrlar davomida insoniyat tomonidan ulug’lab kelingan yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan yondashuv tubdan o’zgardi. Insoniylik tamoyillari inkor qilinib, ularning o’rmini individualizm, axloqsizlik, moddiyatga o’chlik, raqamli qaramlik kabi salbiy odatlar egallamoqda. Mavjud sharoitda kitobxonlik talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan asriy umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbijalashga xizmat qiladi. Talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish murakkab jarayon bo’lib, integral yondashuvni taqozo qiladi. Maqolada talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jarayoni va uni samarali tashkil qilish to’g’risida so’z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: talaba, kitob, kitobxon, kitobxonlik, kitobxonlik madaniyati, rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ БИБЛИОТЕЧНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

Аннотация. Книга и желание её читать имеют важное значение в деятельности студентов, которые начинают самостоятельную жизнь, но ещё не до конца определились со своими жизненными целями и в то же время стремятся к интеллектуальной зрелости. Однако, к сожалению, под воздействием глобальной информатизации подход к высоким духовно-нравственным ценностям, которые человечество веками почитало, радикально изменился. Принципы человечности отвергаются, а их место занимают такие негативные явления, как индивидуализм, безнравственность, жажда материального, цифровая зависимость. В существующих условиях чтение служит средством воспитания студентов в духе уважения к вековым общечеловеческим и национальным ценностям с духовно-нравственной стороны. Развитие культуры чтения у студентов – сложный процесс, требующий интегрального подхода. В статье рассматривается процесс развития культуры чтения у студентов и его эффективной организации.

Ключевые слова: студент, книга, читатель, чтение, культура чтения, развитие, развитие культуры чтения.

CONTENT OF DEVELOPING LIBRARY CULTURE IN STUDENTS

Annotation. Books and the desire to read them play an important role in the activities of students who are stepping into independent life but have not yet fully defined their life goals while striving for intellectual maturity. Unfortunately, however, under the influence of global informatization, the approach to the high spiritual and moral values humanity has revered for centuries has fundamentally changed. The principles of humanity are being rejected, replaced by such negative phenomena as individualism, immorality, materialism, and digital dependence. In the current context, reading serves as a means of fostering students' spiritual and moral education in the spirit of respect for timeless universal and national values. Developing a culture of reading among students is a complex process that requires an integrated approach. The article discusses the process of developing a reading culture among students and its effective organization.

Key words: student, book, reader, reading, reading culture, development, development of reading culture.

Kirish. Yosh va psixologik nuqtai nazaridan talabalik davri (ko‘p holatlarda 18-19 yoshdan 30-35 yoshgacha bo‘lgan oraliq) individning shaxsiy rivojlanishini, kamolotga erishishini ta’minlashda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ta’lim olish, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida kasbiy faoliyat asoslarini puxta o’zlashtirish, bilish faoliyatini tashkil qilish, o’quv topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish murakkab va qiyin jarayon sanaladi. Qolaversa, mustaqil hayot kechirish, o‘zi duch keladigan ham ta’limiy ham ijtimoiy-maishiy muammolarni hal qilish, ular bo‘yicha mustaqil oqilona qaror qabul qilish talabalardan jarayonga oqilona yondashishni, hayot tarzini tartibga solishni taqozo qiladi. Shu bilan birga dam olish va shaxsiy rivojlanish uchun vaqt ajratishga bo‘lgan ehtiyoj hamda uni qondirishga bo‘lgan intilish talabalarni o‘z faoliyatiga nisbatan tanqidiy, tahliliy va ijodiy yondashishga undaydi. Bunday vaziyatda hali etarlicha hayotiy tajribaga ega bo‘limgan talabalar ular uchun eng xolis, beminnat yordamchi badiiy adabiyot (asar)larga murojaat qiladi.

Har bir jamiyatda yoshlarning eng faol qatlami talabalar sanaladi. Talabalarning fuqaro sifatidagi faolligi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolarni ko‘ra bilish, ularning mohiyatini anglash, echimlarni topishga intilish va bu borada shaxsiy hamda jamoaviy tashabbuslarni ilgari surishda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy faollikka erishish, shaxs sifatida rivojlanishda ko‘p sonli ob’ektiv va sub’ektiv omillar bilan birga talabalarning kitobga, kitob mutolaasiga bo‘lgan ijobiy munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, turli yoshdagи shaxslarda bo‘lgani kabi talabalarda aynan kitoblar, ularning mutolaasi ta’sirida ma’naviy-axloqiy rivojlanish, keng dunyoqarash, boy tasavvur, yuqori darajadagi intellekt (xususan, fikrlash, idrok, tafakkur yuritish qobiliyati), hissiyot, badiiy did rivojlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kitob mutolaasi shaxsning umumiy psixologik, intellektual, hattoki, fiziologik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Ushbu fikr AQShning bir qator universitetlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasiga ko‘ra tasdiqlangan. Larri Xell

hamda Deniel Ziglerlarning qayd etishlaricha, kitob mutolaasi shaxsning umumiy psixologik, intellektual, hattoki, fiziologik rivojlanishiga quyidagicha ta’sir ko’rsatadi:

asabni tinchlanadiradi (Sasseks universiteti (AQSh) olimlarining yondashuvlariga ko’ra, kitob o’qitish asabni tinchlanirishda eng samarali usul ekan; buning uchun kuniga bor-yo’g’i 6 daqiqa vaqt sarflash talab etiladi);

hissiyotlarni (xuddi duo yoki she’r o’qish kabi) tarbiyalaydi (badiiy asar o’qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg’ularini yaxshi tushunadi);

miya faoliyatining faolligini oshiradi, miyadagi asab tolalarining sonini ko’paytiradi (Emori universiteti (AQSh)ning tadqiqotchilariga ko’ra, kitob o’qish natijasida insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo’ladi);

kommunikativlik, tinglash, yozish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (Obafemi Avolau universiteti (AQSh) pedagoglari bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini aniqlashgan, darhaqiqat, ko’p kitob o’qigan shaxslarning aksariyati she’r, hikoya, esse yoki ilmiy maqolalarni yuqori saviyada yoza oladi; badiiy asarlarni, ayniqsa, she’rlarni ifodali o’qish, sahna asarlarni yuksak mahorat bilan ijro etish qobiliyatiga ega);

ijtimoiy faollikni oshiradi; badiiy didni o’sтирди;

xorijiy tillarni o’рганишни осонлаштиради (boshqa tillarni o’рганишда yangi so’zlarni осон тушунишга ва yodda saqlab qolishga yordam beradi);

ko’p kitob o’qiydigan bolalar darslarni yaxshi o’zlashtirishadi, yaxshi hikoyanavisga aylanadi (qancha ko’p kitob o’qilsa, shaxsning hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi);

ota-onalar va farzandlarning o’zaro munosabatlari yaxshilanadi [9, – s. 134].

Tahlil va natijalar. Talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish murakkab va qiyin jarayon sanaladi. Jarayonning murakkab va qiyinligini quyidagi qarama-qarshiliklar bilan bilan asoslash mumkin:

badiiy asarlarni mutolaa qilish ularning janridan kelib chiqqan holda (masalan, hikoyani mutolaa qilish) eng kamida 15-20 daqiqani talab qiladi, bugungi kun yoshlarida esa qisqa muddatli vayn (asosiy xususiyati qisqa metrajlilik bo’lib, uning uzoqliligi odatda 6 sekunddan 60 sekundgacha cho’ziladigan videorolik; ko’p holatlarda bu kabi roliklar maishiy mavzularda kulguli qilib suratga olinadi; ular kulguli vaziyatlar yoki maxsus ijro qilingan sahna ko’rinishlaridan iborat bo’lishi mumkin) [2], 2-3 xatboshidan iborat maishiy mavzulardagi axborotlar bilan tanishish ehtiyoji kuchli;

klassik badiiy asarlarda yoritilgan syujetlarning kuchli dramatizm (jiddiylik), asar qahramonlarining ruhiy istirobini anglash, uni his qilish istagi o’rnini mayda, maishiy masalalar, tortishuvlar, taniqli shaxslarning oilaviy hayotiga oid mojarolarga bo’lgan qiziqishning egallagani;

falsafiy qarashlar, mantiqiy g’oyalar bilan tanishish, ular yuzasidan

mikromuhitlarda muhokamalarni tashkil qilishdan ko’ra fikrlash, idrok qilish, tafakkur yuritish, xulosalash talab qilinmaydigan fikr bilan tanishish istagining ustunligi.

O‘zbekiston hududida nafaqat individual shaxslarda, balki jamiyatda ham kitob va uning mutolaasiga bo‘lgan ijobiy munosabat ko‘p asrlik tarixiy tajribaga ega. I Jahon urushigacha bo‘lgan davrlarda savodli, bilimli kishilar soni kam bo‘lgan vaqtarda ham hududlarda, mahallalarda navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik, boburxonlik yig‘inlari tashkil qilingan. Hudud, mahalla aholisi kechalari kunduzgi mehnat faoliyati yakuniga etganda u yoki bu oilalarda to’planib, sham yorug’ida Alisher Navoiy, Fuzuliy, Zahiriddin Bobur, Ahmad Yassaviy, Mahtumquli, Boborahim Mashrab kabi adiblarning asarlarini jamoaviy mutolaa qilgan. Bu jarayonda yig‘ilganlar orasidagi savodi bor shaxslar tomonidan asarlar mutolaa qilib, ular yuzasidan jamoaviy muhokamalar tashkil qilingan.

Ba’zi hollarda madrasa ta’limini o’tagan ziyolilar esa manbalarda yoritilgan Qur’on qissalari, payhambarlar tarixi, Islomiy odobga oil ma’lumotlar bilan yig‘ilganlarni tanishtirgan. Bu shakldagi amaliy harakat masjidlarda, madrasalarda izchil amalga oshirilgan.

Tarixiylik nuqtai nazaridan oilaviy kitobxonlik juda qadim xronologiyaga ega. Manbada ko’rsatilishicha, oilaviy kitobxonlik dastlab qadimgi davrda amaliyotga tatbiq qilingan. Qadimgi yunon faylasufi Plutarx (qad.-yun. Πλούταρχος) tomonidan berilgan ma’lumotga ko‘ra eramizdan avvalgi 234-149 yillarda yashagan Mark Portsiy Katon (Tsenzor yoki Tsenzoriy) katta-katta harflar bilan “Rim tarixi” nomli bolalar mos asarni yaratgan va uni o’z o’g’liga o’qib bergen [10].

Oilaviy kitobxonlik – oila a’zolarining kitobga bo‘lgan oilaviy munosabati, farzandlar va ota-onalarning kitoblarni birgalikda tanlash, o’qish va o’qilganlar bo’yicha o’zaro fikr almashishdan iborat hamkorligi [7, – s. 369].

Ko‘p holatlarda “oilaviy kitobxonlik” haqida so’z borganda ota-onalarning kitobning o’qib berilishi tushuniladi. Biroq, bunday emas, oilaviy kitobxonlik doirasida “bolalarning bir-birlariga, ona yoki otaning bolaga, bolaning o’z onasi yoki otasiga, katta yoshdagilarning kichiklarga, kichik (bola)larning oilanening yoshi katta a’zolari (buva-buvilar)ga kitob o’qib berishlari” [3, – s. 9] ham tushuniladi. Oila davrasida birgalikda kitob o’qitish uning a’zolari o’rtasida o’zaro ruhiy yaqinlikni yuzaga keltiradi, mutolaa jarayonida kitobda bayon qilingan vogelikka nisbatan bir-birlarining hissiy kechinmalarini his qilish, tushunish, syujetning qayta bayon qilishda o’zaro bir-birini to’ldirish, qo’llab-quvvatlash hodisalari ko’zga tashlanadi. Qolaversa, “bolalarning kitobga bo‘lgan e’tiborini kuchaytiradi, badiiy obrazlar, ayniqsa, bayon qilish uslubi to’g’risida birlamchi tasavvurlarni beradi” [1, – 6-b.].

Yu.P.Melenteva o’zi tomonidan olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi to’rtta model oilaviy kitobxonlik mohiyatini yoritishiga e’tiborni qaratadi:

1. Oilaviy kitobxonlik asosini “o’zi uchun o’qish” dan farqli ravishda “ovoz chiqarib o’qish” amaliyoti tashkil qiladi.
2. “Oilaviy kitobxonlik” modeli jamoaviy emas, balki birgalikdagi harakatni tashkil qilishni ko’zlaydi.

3. “Oilaviy kitobxonlik” modeli “shaxsiy kutubxona”, “xususiy kutubxona”, “uy kutubxonasi”, “oila kutubxonasi” kabi tushunchalar bilan mustahkam bog’liq.

4. “Oilaviy kitobxonlik” modelida boshqa modellardan farqli bir vaqtning o’zida mutolaaning bilish, tarbiyalash, rivojlatirish, hordiq chiqarish, kommunikatsiyadan iborat barcha funktsiyalari amaliy jihatdan bajariladi [5, – s. 11].

O’zbekistonda so’nggi besh yil davomida yosh avlodni etuk shaxs sifatida

tarbiyalash, uni har tomonlama rivojlantirish, aholi, jumladan, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish maqsadida kitobxonlik an’anasini qayta tiklashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar to’g’risida”gi (2017 yil 13 sentyabr) 3271-son [11], shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasining “2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to’g’risida” (2020 yil 14 dekabr) 781-son [12] Qarorlari asosida aholi, xususan, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga oid milliy siyosat mazmuni shakllantirilgan hamda jarayonni tizimli, izchil amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga oid milliy siyosat mazmuni “2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash Milliy dasturi” [12] o’z ifodasini topgan. Milliy dasturda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi yo’lidagi mavjud muammolar ko’rsatilgan. Qayd etilgan muammolarning quyidagilari bevosita ta’lim muassasalarining pedagogik faoliyat bilan bog’liqdir:

kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimi mavjud emas;

aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o’stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo’lgan talab chuqur tahlillar asosida o’rganilmagan;

chop etilayotgan kitoblarni aholi o’rtasida ommaviy axborot vositalari orqali targ’ib qilish, ta’lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish hamda ta’lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang’ich ta’limda o’qish madaniyati va mutolaa ko’nikmalarini shakllantirish tizimli yo’lga qo’yilmagan;

... yoshlarda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o’qish ko’nikmasini shakllantirish, jamiyatda mutolaa madaniyatini yuksaltirishning kompleks chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan [12].

“2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash Milliy dasturi”da belgilangan vazifalarni ijobjiy hal qilish orqali “aholi, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ’ib qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlangan davlatlar bilan taqqoslanadigan darajaga ko’tarish hamda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirishga, ularning madaniy savodxonligi o’sishi orqali inson kapitali sifatini yaxshilashga erishish” [12] pedagogik jihatdan o’ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kitoblikni rivojlantirishga oid milliy siyosat respublikada faoliyat ko’rsatayotgan ta’lim muassasalarida tegishli yo’nalish bo’yicha ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilish uchun o’ziga xos metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

Talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish oliv ta’lim muassasalari talabalarining kitob (badiiy asarlar)ga, ularni mutolaa qilishga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish maqsadini ko’zlaydigan ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

Mazkur maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bir qator ijtimoiy-pedagogik xarakterdagi vazifalarning ijobiy hal qilinishini taqozo etadi. Ular quyidagilardir:

talabalarda kitob (badiiy asar)lar, ularning mutolaasi ma’naviy-axloqiy, intellektual, estetik, hattoki fiziologik ehtiyoji, ushbu ehtiyojni qondirish vositasi ekani to’g’risidagi tushunchani mustahkamlash;

ta’lim oluvchilarda kitob (badiiy asar)lar, ularning mutolaasiga nisbatan ijobiy munosabatni kuchaytirish;

kitob (badiiy asarlar), ularning mutolaasi vositasida talabalarning

ma’naviy-axloqiy, intellektual va estetik ehtiyojni qondirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish; ta’sirchan metod, usul, vosita va texnologiyalar yordamida talabalarda mutolaaga bo’lgan qiziqishni oshirish;

innovatsion pedagogik shakllar yordamida talabalarda mutolaa uchun kitob (badiiy asar)ni to’g’ri, ongli tanlash, o’qilgan badiiy asarlar mazmunini tahlil qilish, u bo’yicha mushohada yuritish va xulosa chiqara olishi kompetentsiyalarini rivojlantirish.

Xulosa. Shunday qilib, asrlar davomida kitoblar o’zining funktsional imkoniyatiga ko’ra o’tmish, bugungi kun haqida ma’lumot beruvchi, kelajakni qisman bashoratlovchi vosita bo’lib kelgan. Kitoblar shaxsni ijtimoiy borliq, uning tarkibiy asoslari bilan tanishtiradi, fuqarolik pozitsiyasini, rivojlanish tamoyillarini belgilab olishga yordam beradi, hayotiy intilishlari oydinlashib, maqsadlari qat’iy lashishini ta’minlaydi. Global axborotlashuv ta’sirida kitob mutolaa qilishdek yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatga nisbatan yondashuv tubdan o’zgardi. Shunga qaramay, jamiyatda individualizm, axloqsizlik, moddiyatga o’chlik, raqamli qaramlikning kuchayishi natijasida aholi, jumladan, talabalarda kitob o’qishga, kitobxonlikka bo’lgan ma’naviy-ruhiy ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish murakkab jarayon bo’lib, integral yondashuvni taqozo qiladi. Mavjud sharoitda aniq maqsadga yo’naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat ta’sirida kitob mutolaa qilish intellektual etuklikka intilayotgan talabalar faoliyatining muhim shartlaridan biriga aylanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Baltabaeva M. Oilaviy kitobxonlik – azaliy qadriyat G’G’ J. Kutibxona.uz. – T.: 2018. - №2 (38). – 6-b.

2.Все о вайнах: как снимать, где обрабатывать, сколько можно заработать // <https://anvilhook.ru/blog/vse-o-vajnax-kak-snimat-gde-obrabatyvat-skolko-mozhno-zarabotat>.

3. Зеткина И.А., Николаева Е.А. Семейное чтение в России: в поисках утраченных традиций // Ж. Вестник культуры и искусств. – Челябинск: 2011. - № 3 (27). – С. 9.
4. Мелентьева Ю.П. От нации читателей к нации зрителей. Эволюция чтения и его изучения // Ж. Библиотечное дело. – 2006. – № 10. – С. 2-3.
5. Мелентьева Ю.П. Семейное чтение: теоретический аспект // Ж. Библиосфера. – Новосибирск: 2011. - № 4. – С. 11.
6. Нью-Йорк халқ кутубхонаси: асрнинг энг шов-шувли китоблари // <https://ziyouz.uz/eng-sara-asarlar/nyu-york-xalq-kutubxonasi-asrning-eng-shov-shuvli-kitoblari>.
7. Подкладова Т.Д., Губайдуллина А.Н., Горениццева В.Н. Семейное чтение как социальная практика: постановка проблемы и обзор исследований // Ж. Азимут научных исследований: педагогика и психология. – Тольятти: 2017. - № 3 (20). – С. 369.
8. Talaba o‘qishi kerak bo‘lgan 100 kitob // <https://jdpu.uz/talaba-oqishi-kerak-bolgan-100-kitob>.
9. Хъелл Л., Зиглер Д. Теории личности: основные положения, исследования и применение / Перевод С.Меленевской и Д.Викторовой. – СПб.: Питер Пресс, 2011. – С. 134.
10. Чупринова Е.А. Семейное чтение // http://oubomsk.ru/Posobiya/semejnoe_chtenie.pdf.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги (2017 йил 13 сентябрь) 3271-сон Қарори // <https://lex.uz/docs/3338600>.
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2020-2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида” (2020 йил 14 декабрь) 781-сон Қарори // <https://lex.uz/docs/5160827?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>.
13. 2020-2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-куватлаш Миллий дастури // <https://lex.uz/docs/5160827?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>.
14. BBC: Барча даврларнинг янг яхши 200 та романни // <https://ziyouz.uz/eng-sara-asarlar/bbc-barcha-davrlarning-yang-yahshi-200-ta-romani>.
15. Daily Telegraph: Дунёни ўзgartирган 10 та мумтоз китоб // <https://ziyouz.uz/eng-sara-asarlar/daily-telegraph-dunyon-ozgartirgan-10-ta-mumtoz-kitob>.
16. Guardian: Барча даврларнинг энг яхши 100 китоби // <https://ziyouz.uz/eng-sara-asarlar/guardian-barcha-davrlarning-eng-yahshi-100-kitobi>.
17. Le Monde gazetasida asrning 100 kitob ro‘yxati // https://uz.wikipedia.org/Le_Monde_gazetasida_asrning_100_kitob_ro‘yxati.
18. Newsweek: Жаҳон адабиёти тарихидаги энг яхши 100 китоб // <https://ziyouz.uz/eng-sara-asarlar/newsweek-jahon-adabiyoti-tarikhidagi-eng-yahshi-100-kitob>.